

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tomonidan Teatr san'ati fakulteti talabalari uchun Prodyuserlik fanidan dars o'tildi



Bugun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tomonidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Teatr san'ati fakulteti "San'at sohasida prodyuserlik" ta'lim yo'nalishi 1-hamda 2-bosqich talabalari uchun Prodyuserlik fanidan dars o'tildi.



Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan mashg'ulotda O'zbekiston uchun yangi soha bo'lgan prodyuserning vazifalari, uning qanday bo'lishi lozimligiga e'tibor qaratildi. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqilgani holda bugungi kunda xonandalar oldida turgan turli sohalarni o'zlashtirishdek mashaqqatli mehnat haqida ma'lumotlar berildi.



Ayni paytda yurtimizda prodyuserlik faoliyati rivojlanmaganligi sababli xonandadan boshlovchilik qilish, nutq madaniyati, auditoriyani boshqarish singari ko'plab jihatlar talab qilinadi. Bundan tashqari u imij haqida o'ylashi, she'riyatni tushunishi, sahna madaniyati, repertuarlar tanlashi, qaysi formatda ijod qilishini ham mukammal egallashi lozim.



Bir kishining ushbu jihatlarni o'zlashtirishi qiyin. Shu bois ham bugungi kunda ko'plab talantli ijodkorlar o'z iqtidolarini yuzaga chiqara olmayapti. Prodyuserlar zimmasida esa shu kabi ishlarni tashkil etishdek mas'uliyatli vazifalar turadi. O'zaro savol-javob asnosida o'tgan dars jarayonida xorijiy davlatlar san'atkorlari faoliyatida prodyuserlarning o'rni haqida ma'lumotlar berildi.



Muloqot chog'ida kelgusi darslar nazariya va amaliyot uyg'unligida olib borilishi, talabalar jamoalarga bo'lingani holda amaliy mashg'ulotlarda o'z prodyuserlik mahoratlarini sinab ko'rishlari, xorijiy davlatlar bilan xalqaro talaba almashinuvi, Madaniyat vazirligi qoshida faoliyat olib borayotgan Media markazda amaliyotni hamkorlikda olib borish borasida ma'lumotlar berildi. Jarayonlarni televizion loyihaga aylantirish bo'yicha fikrlar bildirildi.

Matbuot kotibi